



O'ZBEKISTONDA SOVET SAYLOV TIZIMI TARIXI MAVZUSINING TARIXSHUNOSLIGI

Yakubov Nazirjon Salijonovich

*Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti v.b., tarix fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda sovet saylov tizimi tarixi tarixshunosligi tahlil qilingan. Jumladan, sovet saylov tizimi tarixini yorituvchi adabiyotlar davrlarga bo'lingan holda, ya'ni Sovet hokimiyati yillarida shor etilgan adabiyotlar, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida yaratilgan tadqiqotlar va xorijiy tadqiqotshilarning asarlari atroflicha o'rganilib, taqqoslangan.

Kalit so'zlar: Xronologiya, ilmiy asarlar, tadqiqot, sovetlar, saylov tizimi, saylov komissiyasi, saylov huquqidan mahrum qilish, sovet hukumati.

ИСТОРИОГРАФИЯ ТЕМЫ ИСТОРИИ СОВЕТСКОЙ ИЗБИРАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: В статье анализируется историография истории советской избирательной системы в Узбекистане. В частности, была тщательно изучена и сопоставлена литература, освещающая историю советской избирательной системы, разделенная по периодам: литература, изданная в годы Советской власти, исследования, созданные в годы независимости Республики Узбекистан, а также труды зарубежных исследователей.

Ключевые слова: Хронология, научные труды, исследования, советы, избирательная система, избирательная комиссия, лишение избирательных прав, советское правительство.

HISTORIOGRAPHY OF THE TOPIC OF THE HISTORY OF THE SOVIET ELECTORAL SYSTEM IN UZBEKISTAN

Abstract: The article analyzes the historiography of the history of the Soviet electoral system in Uzbekistan. In particular, the literature covering the history of the Soviet electoral system, divided by period, was thoroughly studied and compared: literature published during the years of Soviet rule, research created during the years of independence of the Republic of Uzbekistan, as well as the works of foreign researchers.

Keywords: Chronology, scientific works, research, councils, electoral system, election commission, disenfranchisement, Soviet government.

Bugungi shiddatkor sharoitda va tub islohotlarni amalga oshirish jarayonida milliy tiklanish, ma'naviy yangilanish, milliy o'zlik va o'ziga xoslikni yaxlit tarzda anglab yetgan, erkin demokratik tafakkurga ega bo'lgan va mustahkam milliy tafakkur kuchi bilan birlashgan jamiyat a'zolarini tarbiyalash vazifalarini hal etishda tarix fanining roli yuqori suratda ortmoqda.

Ana shu ijtimoiy muhim vazifalardan kelib chiqib, vatanimiz tarixining og'ir mustamlakachilik o'tmishi bilan bog'liq bo'lgan ayanchli sahifalariga bugungi kun nuqtayi nazaridan qayta baho berish alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyati yillarida olib borilgan zo'ravon siyosat oqibatida mustamlakachilik tarixining soxtalashtirib va buzib ko'rsatilishi fanda ushbu masalaga murojaat qilish va alohida e'tibor qaratishni taqozo etish bilan ajralib turadi.

O'zbekistonda sovet saylov tizimi tarixi mavzusining tarixshunosligi bo'yicha mavjud adabiyotlardagi konseptual-metodologik yondashuvlarining mazmuniga ko'ra uch guruhga bo'lgan holda tahlil qilish mumkin: 1) sovet hokimiyati yillarida chop etilgan adabiyotlar; 2) O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida yaratilgan tadqiqotlar; 3) xorijiy tadqiqotchilarning asarlari.

Sovet hokimiyati yillarida chop etilgan adabiyotlar. Ko'rib o'tilayotgan davr – 1918-1937-yillardagi saylov tizimi tarixiga doir sovet hokimiyati yillarida yaratilgan ilmiy adabiyotlarni xronologik jihatidan to'rtta davrga ajratish mumkin: 1) 1918-yil – XX asr 30-yillarining o'rtalari; 2) XX asr 30-yillarining ikkinchi yarmi – XX asr 50-yillarining o'rtalari; 3) XX asr 50-yillarining ikkinchi yarmi – XX asr 80-yillarining o'rtalari; 4) XX asr 80-yillarining ikkinchi yarmidan – 1991-yilgacha yaratilgan ilmiy adabiyotlar.

1918-yildan XX asr 30-yillarining o'rtalariga qadar e'lon qilingan asarlarning aksariyati ilmiy asarlar emas, balki targ'ibot-tashviqot xususiyatidagi materiallar edi. Bu davr adabiyoti, asosan, publitsistik mazmundagi risolalar va maqolalar bilan ifodalangan, ularda sovet davlati asoschilari bo'lgan bolshevik rahbarlarining proletar davlatchiligi haqidagi munozaralari bayon etilgan va sovetlarni shakllantirish tajribasi umumlashtirilgan⁹³. Shuningdek, bu davrda davlat hokimiyatining yangi organlariga saylovlarni tashkil etish va o'tkazishga bag'ishlangan alohida nashrlar ham paydo bo'ldi⁹⁴.

⁹³ Михайлов Г.С. Советское представительство и избирательное право. – Москва: Ред.-изд. секция Нар. ком. вн. дел., 1922. – 52 с.; Икрамов А. Итоги земельной реформы и перспективы её закрепления. – Самарканд-Ташкент, 1925. – 44 с.; Шуйский Ф.А. Партия и советы. – Москва; Ленинград: Гос. изд-во, 1927. – 100 с.; Ходжаев Ф. За высокий урожай хлопчатника и организационно-хозяйственное укрепление колхозов. – Ташкент, Госиздат УзССР, 1933. – 30 с.; Ленин В.И. Доклад о партийной Программе/ Полное собрание сочинений. Издание пятое. Том 38. Март-июнь 1919. – Москва: Издательство политической литературы, 1969. – С. 151-174;

⁹⁴ Бродович С.М. Советское избирательное право. Предисл. проф. Д.А. Магеровского. – Ленинград: Гос. изд-во, 1925. – 131 с.; Стоклицкий А.В. Достижения, трудности и недочеты нашего строительства. К перевыборам Советов. – Москва; Ленинград: Гос. изд-во, 1929. – 94 с.; 15 лет советского строительства. (1917-1932). Сборник статей под ред. Е.Пашуканиса. – Москва: Сов.законодательство, 1932. – 510 с.; Ундревич В.С. Новая эпоха Советской демократии. –

Har safar sovetlarga bo‘ladigan saylovoldi kampaniyalarida bolsheviklar tomonidan mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida amalga oshirilayotgan islohotlar va dolzarb muammolarga bag‘ishlangan ma‘lumotlar, saylov qonunchiligi masalalariga oid yo‘riqnoma va ko‘rsatmalar, saylov bo‘yicha tashviqot tadbirlariga bag‘ishlangan maqola va tezislari, tashviqot yakunlari to‘g‘risidagi hisobotlar kabi turli materiallar chop etib borilgan. E‘lon qilingan ushbu materiallarning qiyosiy tahlili nafaqat bu davrdagi siyosiy vaziyat o‘zgarishlarini, balki mamlakatdagi saylov tizimining rivojlanish bosqichlarini ham aniqlash imkonini beradi. Bu asarlarning aksariyat mualliflari o‘z davrining yirik namoyondalari, mamlakatda ro‘y berayotgan jarayonlarning bevosita ishtirokchilari, sovet va kommunistik partiyaning faol a‘zolari hamda rahbarlari bo‘lganliklari bilan ajralib turadi⁹⁵. Xususan, birinchi davrga tegishli mavzuga oid hujjatlar orasida RKP(b) MKning navbatdagi saylovlar to‘g‘risidagi RKP(b) MK kotiblari V.M.Molotov, L.M.Kaganovichlar tomonidan imzolangan sirkulyar (farmoyish) xatlari, M.I.Kalinin raisligida Butunrossiya Markaziy Ijroiya Komiteti tomonidan tasdiqlangan sovetlarga saylovlar bo‘yicha ko‘rsatmalar muhim ahamiyatga ega sanaladi. Shuningdek, partiya va sovet arboblari ham bu davrda saylovlar bo‘yicha matbuotda maqolalar bilan chiqish qilganlar.

Umuman olganda, XX asr 20-yillarining oxirlarigacha sovetlarga saylovlar muammosi tarixshunoslik fanining maxsus tadqiqot obyekti sifatida alohida ajralib turmadi. Ta‘kidlash joizki, 1920-1930-yillarga oid tadqiqotlarda butun mamlakat va ittifoqdosh respublikalarning qishloq va shahar sovetlariga qayta saylovlarning borishi masalalari jamlangan. Ushbu materiallar asosan publitsistik va sotsiologik yo‘nalishi bilan ajralib turadi, ularda keltirilgan materiallar mamlakat qurilishi jarayonlarini yoritish, partiyaning saylov kampaniyalaridagi rolini aks ettirishi bilan ahamiyat kasb etgan. Ularda aholining saylovlardagi ishtiroki, sovetlarning yangi saylangan tarkibi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar aks etgan bo‘lib, ular bu davrdagi sovet hokimiyatining siyosiy qiyofasini yoritish imkonini beradi⁹⁶.

Bu davr tadqiqotchilarining e‘tiborini sovetlarni “jonlantirish” kampaniyasi va 1924-yildagi kuzgi saylovlarning bekor qilinishi masalasi jalb qilgan. Bu yillardagi ko‘pgina nashrlar saylov kampaniyalarining “omma bilan aloqalarni mustahkamlashdagi rolga” bag‘ishlangan bo‘lib, mualliflar ushbu masalalarga alohida e‘tibor berganlar. O‘tkazilayotgan saylovlarda kommunistik partiyaning yetakchilik roli, sovetlarga ayollar va qishloq kambag‘allari kabi ayrim ijtimoiy guruhlarini jalb qilish hamda quloqlarga qarshi kurash siyosati tadqiqotlarning diqqat markazida bo‘lgan. Nashr etilgan ushbu davrga oid asarlar tadqiqotchilar nigozida

Ленинград: Лениблиздат, 1935. – 91 с.

⁹⁵ Молотов В.М. Итоги перевыборов Советов 1925-1926 гг. – Москва-Ленинград: Гос. изд., - 1926. – 30 с.; Каганович Л.М. Партия и Советы. – Москва: Гос. изд., 1928. – 64 с.

⁹⁶ Белогулов М.Г. К вопросу об изучении источников о сельских Советах восстановительного периода (1921-1925 г.г.). Советские архивы. – 1978. №3. – С. 71-75.

nafaqat faktik ahamiyatga ega, balki ular mazkur voqealarning guvohlari va bevosita ishtirokchilari sifatida fikr-mulohazalarini o‘zida aks ettirgani bilan ham muhimdir⁹⁷.

XX asr 30-yillarining ikkinchi yarmidan XX asr 50-yillarining o‘rtalarigacha bo‘lgan davrda yaratilgan mavzuga aloqador ilmiy adabiyotlar⁹⁸ o‘ta mafkuralashtirilgan asarlar bo‘lib, ularda nafaqat sotsialistik demokratiyaning burjua demokratiyasidan ustunligini namoyish etish yaqqol ifodalanish bilan birga, ularni nashr qilish vaqti ham an‘ana tariqasida, yubiley yoki sovetlarning qayta saylovlari vaqtiga to‘g‘ri kelganligi bilan ham bog‘liq. Biroq, bu asarlar sovet davlat hokimiyati organlari shakllanishining ilmiy tahlilini o‘z ichiga olgan tadqiqotlar sifatida muhim o‘rin tutadi. Asarlar saylov jarayoni davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlarni yoki davlat tuzilmalarini o‘rganish nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Bu jihatdan baho berganda, tadqiqotchilar A.B.Lujin, A.G.Lashin, A.Zverevlarning asarlarini alohida qayd etib o‘tish lozim. Ularda shahar sovetlarini shakllantirish masalalari va deputatlarning vakolatlari kabi jihatlar tahlil qilingan.

Mavzuga doir tadqiqotlarning uchinchi davriga oid tadqiqotlar mavzuning turli jihatlarini ochib berishi va saylov tizimi tarixiga oid keng ko‘lamdagi manbalar bazasini muomalaga kiritganligi bilan tavsiflanadi⁹⁹. XX asr 50-yillarining ikkinchi yarmiga tegishli tadqiqotlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularda o‘zidan avvalgi yillarda tarixiy-huquqiy fanlarda kuzatilgan uslubiy inqiroz holatidan chiqish yo‘lini izlash hamda an‘anaviy andozalardan voz kechishning yuzaga kelishi edi.

Saylov tizimi tarixini o‘rganishdagi tub burilish XX asr 50-yillarining o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. KPSS XX syezdi ma‘naviy erkinlik jarayonlariga ta‘sir ko‘rsatib, sovet hokimiyatining dastlabki yillari tarixi tadqiqotchilarda alohida qiziqish uyg‘otdi. Bu davrda saylovlar tarixi bo‘yicha tadqiqot ishlari ancha jonlandi. Mahalliy boshqaruv organlari faoliyati alohida muammo sifatida A.I.Lepeshkin tomonidan tadqiq qilingan¹⁰⁰. Muallif o‘z asarida birinchi bor shahar va qishloq sovetlariga saylovlarning qonunchilik bazasini ko‘rib chiqdi. A.I.Lepeshkinning “Sovetlar – xalq hokimiyati” nomli monografiyasi 1936-yildan 1967-yilgacha bo‘lgan tarixiy davrni o‘z ichiga oladi¹⁰¹. Tadqiqotda mehnatkash xalq deputatlari

⁹⁷ Литвиненко П., Раскин Г. Колхозное движение и классовая борьба в кишлаке Узбекистана. – Ташкент: УзГИЗ, - 1931. – 54 с.; Калинин М.И. Статьи и речи 1919-1935 гг. – Москва: Партиздат ЦК ВКП(б), - 1936. – 167 с.; Сельское хозяйство Узбекистана за 15 лет (1924-1939). Сб. статей. – Ташкент, - 1939. – 183 с.

⁹⁸ Очерки по истории органов Советской государственной власти. (Материалы к изучению истории советского государства и права). – Москва: Гос. изд-во юрид. лит., - 1949. – 358 с.; Лужин Л.С. Городские Советы депутатов трудящихся. Под ред. Н.Г.Старовойтова. – Москва: Госюриздат, - 1954. – 268 с.; Лашин А.Г. Местные органы государственной власти в СССР. – Москва: Госполитиздат, - 1955. – 40 с.; Саидалиев С.С. Борьба за осуществление ленинского кооперативного плана в Узбекистане. – Ташкент: Госиздат УзССР, - 1958. – 131 с.

⁹⁹ Казачковский В.А. Укрепление советской государственности в 1926-1929 гг. Автореф. канд. ист. наук. – Киев, - 1951. – 24 с.; Чесноков Д.И. Советское социалистическое государство. – Москва: Госполитиздат, - 1952. – 632 с.; Аскеров Л.А. Очерки истории советского строительства. – Москва: Изд-во Московского университета, - 1953. – 368 с.; Барбашев В.М. КПСС в борьбе за перестройку работы массовых организаций трудящихся в период проведения в жизнь Конституции 1936 г. и выборов в Верховный Совет СССР 1937 г.: Дис. канд. ист. наук. – Москва, - 1955. – 188 с.

¹⁰⁰ Лепешкин А.И. Местные органы власти советского государства (1917-1920 гг.). – Москва: Государственное издательство юридической литературы, - 1957. – 304 с.; Унинг o‘zi. Местные органы власти советского государства (1921-1936 гг.) – Москва: Государственное изд. юрид. литературы, - 1959. – 412 с.; Унинг o‘zi. Советы – власть трудящихся (1917-1936 гг.) – Москва: Издательство “Юридическая литература”, - 1966. – 576 с.

¹⁰¹ Лепешкин А.И. Советы - власть народа. 1936-1967 гг. – Москва: Юридические литературы, - 1967. – 375 с.

sovetlari saylovini o‘tkazishning tashkiliy-huquqiy asoslari yetarli darajada batafsil tahlil qilinib, saylov jarayoniga partiyaviy rahbarlik qilish masalalari keng yoritilgan.

Mavzuga aloqador adabiyotlar ichida N.M.Aleshenko, G.S.Yeskov, A.F.Kalinin, E.M.Kojevnikov, B.P.Kravsov, F.I.Kalinichev, V.M.Kuritsinlarning asarlari¹⁰² katta ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Sovet davlatida konstitutsiyaga muvofiq tarzda saylov kampaniyalarini tashkil etishdagi o‘zgarishlar keltirib o‘tilgan umumlashtiruvchi tadqiqot asarlarda keng tavsiflangan. Ularda saylovoldi tashviqotlarini olib borish jarayonlari va usullari batafsil tahlil qilingan, saylovchilarning buyurtmalarini bajarish bo‘yicha deputatlar tomonidan amalga oshiriladigan ishlar mazmuni yuzasidan ma’lumotlar o‘rin olgan.

Sovet davlatining saylovlar tizimi F.N.Sudarikov, B.A.Strashun va boshqalarning tadqiqotlarida izlanish obyekti sifatida tahlil doirasiga tortilgan¹⁰³. Ushbu tadqiqotlar ichida eng qiziqarli va muhimlaridan biri saylov byulletenida bitta nomzodning bo‘lishini qonuniylik deb hisoblagan A.I.Kimning asaridir¹⁰⁴. Ushbu ish sovet saylov jarayonlarini maxsus tadqiq etuvchi asar bo‘lib, muallif 1917-yildan 1960-yilgacha sovet davlatidagi saylov tizimi nazariyasi va amaliyotini tahlil qilgan. Muallif partiya qarorlari asosida saylov tizimini shakllantirishni kommunistik o‘zini-o‘zi boshqarishning jamoaviy tizimini yaratish sari qadam deb hisoblaydi. Bundan ham ko‘rinib turganidek, bu davrda yaratilgan mavzuga oid ilmiy adabiyotlar boshdan-oyoq kommunistik mafkura ruhi bilan sug‘orilgan, ularda o‘sha davrning siyosiy-mafkuraviy ta’siri yaqqol ko‘rinib turadi.

XX asrning 70-80-yillarida sovetlarga deputatlar saylovini tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq masalalar N.N.Demochkin, Yu.Ye.Kukushkin, V.M.Kuritsin, V.P.Portnov va M.M.Slavinlar tomonidan tadqiq etilgan¹⁰⁵.

XX asr 80-yillarining o‘rtalariga qadar sovet tarixshunosligi partiya va hukumatining qattiq nazorati ostida qoldi. Tadqiqotlarning g‘oyaviy mafkuraga bo‘ysundirilishi bu davrdagi barcha tadqiqotlarda ko‘rinib turadi¹⁰⁶. Tarixiy asarlarda “Proletariat dohiysi”ning roli,

¹⁰² Кравцов Б.П., Калинин Ф.И. Советская Конституция и ее историческое развитие. Для университетов марксизма-ленинизма. – Москва: Мысль, - 1967. – 53 с.; Алешенко Н.М. “Московский совет 1917-1941 гг”. – Москва: Наука, - 1976. – 591 с.; Калинин А.Ф. Повышение роли Советов в период завершения социалистической реконструкции народного хозяйства. – Ленинград: Изд-во Ленингр. унив-та, - 1976. – 138 с.; Кожевников Е.М. Исторический опыт КПСС по руководству Советским государством (1936-1941). - 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Высшая школа, 1977. – 239 с.; Еськов Г.С. Укрепление политической основы Советского государства. Период построения социализма. – Москва: Мысль, - 1983. – 247 с.; Курицин В.М. Развитие прав и свобод в Советском государстве. – Москва: Юридические литературы, 1983. – 191 с.;

¹⁰³ Судариков Ф.Н. Всеобщее избирательное право в СССР. – Москва: МГУ, - 1961. – 267 с.; Страшун Б.А. Социалистическое избирательное право. Автореф. дис. на соиск. уч. степ. канд. юрид. Наук. – Москва: - 1962. – 32 с.; Ким А.И. Теория советского избирательного права и применение избирательного законодательства при формировании представительных органов власти в СССР. Автореф. дис. на соиск. уч. степ. докт. юрид.наук. – Томск: Изд-воТомского ун-та, 1965. – 60 с.

¹⁰⁴ Ким А.И. Советское избирательное право. Вопросы теории, избирательного законодательства и практики его применения. – Москва: Юридическая литература, - 1965. – 204 с.

¹⁰⁵ Демочкин Н.Н. Власть народа. Формирование, состав и деятельность Советов в установлении развитого социализма. – Москва: Мысль, - 1978. – 278 с.; Кукушкин Ю.С. От первых Советов рабочих депутатов к Советам народных депутатов. – Москва: Политиздат, - 1979. – 80 с.; Курицын В.М. Развитие прав и свобод в советском государстве. – Москва: Юридическая литература, - 1983. – 191 с.; Портнов В.П., Славин М.М. Становление и развитие конституционного законодательства советской России 1917-1920 гг. – Москва: Издательство “Наука”, - 1987. – 254 с.

¹⁰⁶ Непомнин В.Я. Исторический опыт строительства социализма в Узбекистане (1917-1937). – Ташкент: Госиздат УзССР, - 1960. – 221 с.; Гимпельсон Е.Г. Литература о Советах первых лет диктатуры пролетариата (1917-1920 гг.) и история СССР. - 1963. №5. – С.152-166.; Кукушкин Ю.С. Проблемы историографии Советов периода строительства

shuningdek, kommunistik partiya va sovet xalqining ulkan yutuqlari, albatta, aks ettirilishi shart edi. Mahalliy hokimiyat organlariga saylovlarni tashkil etish va o‘tkazish masalalarini tadqiq etgan tadqiqotchilar mafkuraviy yo‘nalishga moslashib, unga xizmat qilishlari kerak edi.

XX asr 80-yillarining oxiriga kelib kommunistik partiya jamiyat fikrlarini rasmiy ifoda etish organi funksiyasini to‘xtatdi. Ko‘pgina ijtimoiy doiralarda oshkoralik to‘g‘risida fikrlar o‘rtaga tashlana boshladi, bu dastlab faqat siyosiy shior bo‘lib, turli fikrlar, g‘oyalar, muqobil qarashlar va ilgari yashirincha muhokama qilingan barcha mulohazalar endi ochiq-oshkora aytila boshladi. Bu davrga kelib, sovetlarga deputatlar saylovi mavzusi bilan tarixchilarning butun bir avlodlari shug‘ullana boshladi, ular tomonidan jamlangan turli materiallar bugungi kunga kelib mazkur mavzuning turli qirralarini tadqiq etishga keng yo‘l ochib berdi. XX asrning 80-90-yillarida sovetlarga saylovlar tarixini tadqiq etishda muammolarga ko‘proq emotsional tarzda munosabatda yondashish oldingi o‘ringa chiqib qoldi. Tadqiqotchilar o‘zlaridan oldingi XX asr 20-yillaridan boshlab to‘plangan mavzuga doir asarlar yuzasidan ham tanqidiy fikrlarni bayon qilganlar¹⁰⁷. Ularda bayon etilgan arxiv hujjatlariga asoslangan ma’lumotlar mahalliy sovetlarga deputatlar saylovini o‘tkazish xususiyatlarini ham umumlashtiradi.

Shunday qilib, sovet hokimiyati yillarida davlat hokimiyatining saylanadigan organlarini shakllantirish mexanizmini tahlil qilishning ilmiy asoslarini yaratish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilgan. Biroq, keltirib o‘tilgan mazkur tadqiqotlar, dissertatsiyalar hamda boshqa aksariyat monografiyalar va maqolalar sovet davri saylov jarayonini to‘liq yoritib berish, saylovlarning barqaror va o‘ziga xos o‘zgaruvchanlik dinamikasi haqida atroflicha xulosa qilish imkonini bermaydi. Bu asarlar yozma xususiyatdagi materialni taqdim etish usuli, saylov natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlardan illustrativ foydalanish, sovet jamiyatida demokratiyani rivojlantirishning tayyor konsepsiyasi uchun faktik materiallarni taqdim etish xususiyati bilan ajralib turadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida yaratilgan tadqiqotlar. XX asr 90-yillarining boshlariga kelib, ittifoqdosh respublikalar birin-ketin o‘z mustaqilliklarini e’lon qilishi va SSSRning batamom parchalanishi natijasida mustaqil respublikalarning yangi konstitutsiyalaridan “Sovet” va “Sotsialistik” kabi atamalar hamda tushunchalar mutlaqo chiqarib tashlandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi tarixshunosligida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga saylovlar mavzusini o‘rganishning tubdan yangi yondashuvlari va usullari paydo bo‘ldi. Istiqlool davri tarixchilari ilgari o‘rganishga imkon berilmagan mavzularni

социализма (1921-1936 гг.). Очерки по историографии советского общества. Сборник статей под ред. М.Е.Найденова. – Москва: Издательство Московского Университета, - 1967. – 320 с.; Ибрагимов А.Ю. Победа ленинского кооперативного плана в Узбекистане (1929-1933 гг.). – Ташкент: Фан, УзССР, - 1969 – 330 с.; Тулепбаев Б.А. Торжество ленинских идей социалистического преобразования сельского хозяйства в Средней Азии и Казахстане. – Москва: Наука, 1971 – 482 с.; Белогуров М.Г. К вопросу об изучении источников о сельских Советах восстановительного периода (1921–1925 гг.). Советские архивы. - 1978. №3. – С. 71-75.

¹⁰⁷ Иванченко А.В. Великий Октябрь и революционное утверждение политических прав и свобод граждан и Советское государство и право. 1987. №11. – С. 17-26.; Унинг о‘zi. Демократические институты в истории советского государства. Советское государство и право. - 1989. №1. – С.118-126.; Страшун Б.А. Конституция РСФСР 1918 г. и выборы в органы советской власти. Советское государство и право. - 1988. №7. – С. 27-28.; Кочев В.А. Общие собрания, сельские сходы граждан и Советы. Правоведение. - 1990. №4. – С. 78-83.

tadqiq etish, tanqidiy o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Jumladan, mustaqillik yillarida yaratilgan bir qator asarlarda qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish davrida aholining ayrim toifalarini saylov huquqidan mahrum qilish masalasi dolzarb mavzu sifatida izlanish ob‘ektiga aylandi¹⁰⁸.

Bu yillarda himoya qilingan ayrim dissertatsiyalarda O‘zbekistonda XX asrning 20-30-yillarida mulkdor qatlam vakillarining saylov huquqidan mahrum qilinishi masalasi qisman yoritib o‘tilgan¹⁰⁹.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish lozimki, O‘zbekistondagi sovet saylov tizimi tarixi masalasi aksariyat hollarda yer-suv islohotlari, qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish jarayonidagi siyosiy cheklovlar mazmun-mohiyatini ochiqlash nuqtayi nazaridan boshqa bir muammoning tarkibiy qismi yoki ijtimoiy oqibati sifatida yoritib o‘tilgan. Ushbu masala yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan asarlar va dissertatsiyalarda alohida mavzu yoki bob sifatida tadqiq etilmaganligi bilan ham muhimdir.

F.Nasriddinov dissertatsiyasida saylov komissiyalari tushunchasi, saylov jarayonining muhim instituti sifatidagi o‘rni, shakllanishi va rivojlanishi, saylov komissiyalari faoliyatidagi huquqiy asoslar va asosiy prinsiplari ochib berilgan¹¹⁰.

Sh.A.Qambarovanning tadqiqot ishida saylov qonunchiligi, joylarda saylov komissiyalarining tashkil etilishi, saylovoldi targ‘ibot-tashviqot ishlari, saylovlarni o‘tkazish jarayonidagi noqonuniy harakatlar, sovet saylov tizimining sinfiy xarakteri va “haqsizlar” ning ijtimoiy hayotdagi turmush sharoitlari qisqa tahlil qilingan¹¹¹. Mazkur tadqiqot ishi asosan Farg‘ona vodiysida sovet hokimiyatining qatag‘on siyosati va uning oqibatlariga bag‘ishlanganligi bois, saylov tarixi va saylov huquqidan mahrum qilish siyosatiga ham aynan shu nuqtayi nazardan yondashilgan. Shuningdek, dissertatsiyada 1918- va 1925-yillardagi Konstitutsiyalarda hamda saylov yo‘riqnomalarida fuqarolarning saylov huquqini tiklash imkoni va tartibini belgilab beruvchi moddalarning mavjud emasligi keltirilgan¹¹². Ta’kidlash joizki, yuqoridagi konstitutsiyalarda haqiqatan ham saylov huquqlarini tiklash bilan bog‘liq

¹⁰⁸ Голованов А.А. Крестьянство Узбекистана: эволюция социального положения. 1917-1937 гг. – Ташкент: Фан, - 1992. – 162 с.; Аминова Р.Х. Возвращаясь к истории коллективизации в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1995. – 120 с.; Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ватан тарихи (Ўзбекистон шўролар истибдоди даврида). Иккинчи китоб. Иккинчи қисм. – Андижон, 1998. – 560 б.; Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, - 2000. – 668 б.; Тарих шохидлиги ва сабоқлари. Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. – Тошкент: Шарқ, - 2001. 368 б.; Шамсутдинов Р.Т. Ўзбекистонда советларнинг кулоклаштириш сиёсати ва унинг фожиаи оқибатлари. – Тошкент: Шарқ, - 2001. – 368 б.; Унинг о‘зи. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, кулоклаштириш, сургун (Ўрта Осиё республикалари мисолида). – Тошкент: Шарқ, - 2003. – 544 б.

¹⁰⁹ Назаров О. Проведение сплошной коллективизации сельского хозяйства в Узбекистане и ее социально-экономические последствия (1929-1937гг.) (на примере Ташкентской и Ферганской областей). Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Ташкент, - 2001. – 22 с.; Абдуллаев М.Ф. Ўзбекистонда советларнинг “кулоқ” қилиш сиёсати ва унинг фожиаи оқибатлари. Тарих ф.н. диссертацияси. – Тошкент, - 2002. – 157 б.

¹¹⁰ Насриддинов Ф.А. Ўзбекистонда сайлов комиссиялари фаолиятининг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. Юридик ф.б.ф.д. (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент: - 2019. – 128 б.

¹¹¹ Қамбарова Ш.А. Фарғона водийсида совет ҳокимиятининг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари.Тарих ф.б.ф.д. (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Фарғона, - 2022. – 146 б.

¹¹² Қамбарова Ш.А. Фарғона водийсида совет ҳокимиятининг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари. Тарих ф.б.ф.д. (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Фарғона, - 2022. – Б.88.

moddalar mavjud emas. Biroq, 1925- va 1927-yillardagi “Sovetlarga saylovlar to‘g‘risida”gi yo‘riqnomalarda saylov huquqlarini qayta tiklash masalasi alohida yoritib o‘tilgan.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida demokratik fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida sovet davridagi saylov tizimini tanqidiy o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ancha kuchaydi. Aynan ushbu davrda amalga oshirilgan ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlarida sovet davridagi saylovlar tizimi tarixi va rivojlanish bosqichlari ma‘lum darajada tahlil etilgan¹¹³. Eng muhim jihati ushbu tadqiqotlarda yangi jamiyat qurilishi jarayonidagi demokratik saylov tizimining yuzaga kelishi, ularning sovet davridagi saylovlardan ilg‘or jihatlari o‘zaro taqqoslash metodlarida yoritib o‘tilgan. Bu tadqiqotlar mualliflari sovet davridagi saylovlarda deputatlikka nomzodlar ko‘rsatishda hukmron kommunistik partiyaning nazorati, saylovlarda muqobillik yo‘qligi kabi jihatlarga tanqidiy baho berganlar.

Biroq, bu tadqiqotlarda sovet davridagi saylov jarayonlarining faqat ayrim jihatlari to‘xtalib o‘tilgan, xolos. Shuningdek, saylov huquqi tarixiga oid aksariyat zamonaviy asarlar davlat boshqaruvi sohasidagi hukumatning qonunchilik siyosati va qonunchilik normalarini tahlil qilishga qaratilgan.

Xorijiy tadqiqotchilarning asarlari. Sovet davridagi saylovlar tarixi chet el tarixshunosligida ham o‘rganilgan va saylov tizimining ayrim jihatlari xorij tadqiqotchilariga izlanish obyekti bo‘lgan. Biroq, shuni qayd etib o‘tish lozimki, XX asrning 80-yillari oxiriga qadar xorij tadqiqotchilarining arxiv manbalaridan foydalanishi nihoyatda cheklangan edi. Shuning uchun ham sovet davlatidagi saylovlar siyosiy va huquqiy hodisa sifatida G‘arb davlatlarida u qadar ko‘p tadqiq etilmagan va muammoning umumiy jihatlari yoritib o‘tilgan, xolos. Jumladan, xorij tadqiqotchilaridan M.Austin, F.Meyer, R.Allen, V.Bartlett, K.Kolegrove tadqiqotlarida¹¹⁴ sovet davri saylovlari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tilib, saylovlarda muqobil variantlar yo‘qligi, lekin shunday bo‘lsa-da, saylovlarda saylovchilarning ishtiroki nihoyatda yuqori darajada bo‘lishi, saylovchilar ishtirokining faolligiga saylovlarni tashkil etishning o‘ziga xos yondashuvlari va maqsadlari tahlil etilgan. Bu nuqtayi nazardan X.O.Lengning katta ko‘lamdagi manbalarga asoslanib yozilgan tadqiqoti alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi¹¹⁵. Unda saylov tizimi Rossiya imperiyasi va sovet saylov qonunchiligining tarixiy rivojlanishi, unga xorijiy mamlakatlardagi saylov tizimlarining ta’siri, shuningdek, sovet mamlakatidagi ichki va tashqi siyosiy vaziyatning natijasi sifatida tahlil etilgan.

¹¹³ Расулов Б.М. Ўзбекистонда коллективлаштириш жараёнидаги сиёсий қатағонлар ва сургун қилинган деҳқонлар аҳволи (1929-1959 йиллар). – Тошкент: Шарқ, - 2012. – 372 б.; Абдуллаев М.Ф. Ўрта Осиёдаги махсус посёлкалар тизими ва сургун қилинган кулоқлар тақдири (1920-1954 йиллар). – Тошкент: Akademnashr, - 2018. – 352 б.; Хошимов С.А. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистондаги қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (1917-1936 йиллар). – Тошкент: Akademnashr, - 2018. – 272 б.; Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917 – 1939 йиллар. Масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Раҳимов, Қ. Ражабов. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019. – 560 б.

¹¹⁴ Allen R., Bartlett W., Colegrove K. Democracy and communism: theory and action. Princeton, Ney Jersey, London, Toronto, - 1967. – 520 p.; Austin M. The Great Experiment. A Study of Soviet Society. – London, English Universities Press, - 1975. – 218 p.; Meyer F. USSR. Gesicht einer Weltmacht: Vom selbstzerstörerischen Drang nach Überlegenheit. – Reinbek bei Hamburg: Rowohlt, 1986. - VIII, 320 p.

¹¹⁵ Leng H.O. Die allgemeine Wahf im bolschewistischen Staat. Theorie. Praxis. Genesis. Köln, - 1973. – 188 p.

Saylov tizimining xorijiy tarixshunosligi haqida to‘xtalganda, chet el tadqiqotchilaridan E.Karr, N.Vert va U.Enyuanlarning ilmiy tadqiqot ishlarini keltirib o‘tish lozim¹¹⁶. Aytish mumkinki, sobiq SSSR parchalangandan keyingi davrlarda ham sovet davlati siyosiy tuzilmasi yuqoridagi kabi chet ellik tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg‘otib kelmoqda. Ularning diqqat markazi asosan, sovet hokimiyatining davlat tuzilmasi, davlat organlarini saylash orqali yuzaga kelishining qonunchilik asoslarini o‘rganishga qaratilgan.

Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasi tadqiqotchilari tomonidan sovet davridagi saylovlar tarixi masalasi ancha keng tadqiq etilmoqda. “Qayta qurish” siyosatining ta’siri sifatida sovet davridagi saylov tizimini tanqidiy nuqtayi nazardan o‘rganish XX asr 80-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab rossiyalik tadqiqotchilar tomonidan izchil yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, A.B.Ivanchenko, A.C.Anikeev, Yu.A.Vedeneev, I.V.Zaysev, I.R.Yankovskiy tadqiqotlarida bu mavzuning umumiy jihatlari yoritib o‘tilgan¹¹⁷. Sovet davridagi saylovlar tarixining alohida masalalari S.D.Knyazev, S.A.Avakyanning umumlashgan ishlarida o‘z aksini topgan¹¹⁸.

Yuqorida sanab o‘tilgan tadqiqotlar mualliflari sovet davlatidagi saylovlar jarayonini yoritishda, deputatlikka nomzodlar ko‘rsatishda partiyaning qattiq nazorati va ta’siri, deputatlikka nomzodlarni ko‘rsatishda ijtimoiy holat bo‘yicha qat’iy belgilangan buyurtmalarning mavjudligi, saylovlarda muqobillikning yo‘qligi kabi jihatlarga alohida e’tibor qaratganlar.

Bundan tashqari, rossiyalik tadqiqotchilar M.S.Salamatova va D.V.Valuyevlar o‘z tadqiqotlarida RSFSRning 1918- va 1925-yillardagi Konstitutsiyalariga asosan 1918-1936-yillar davriy chegarasida Rossiyaning G‘arbiy mintaqalari, xususan Sibir o‘lkalarining shahar va qishloqlaridagi “haqsizlar”ni toifalarga ajratgan holda o‘rganib, sovet davlatining saylov huquqidan mahrum qilish siyosati va uni amalda tatbiq etish, saylovlarda ishtirok etishdan chetlatilgan shaxslarning hayoti va jamiyat bilan munosabatlarida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni yoritib berganlar¹¹⁹.

L.A.Serokurova va N.M.Morozovalar o‘z dissertatsiyalarida Qrim va Mordoviya ASSRlardagi “haqsizlar” institutini XX asrning 20-30-yillari birinchi yarmidagi ijtimoiy-

¹¹⁶ Кэпп Э. История Советской России: большевистская революция. 1917-1923. Кн. 1. Том 1-2. – Москва: Прогресс, - 1990. – 763 с.; Эньюань У. Нэпманы, их характеристика и роль. Отечественная история. - 2001. №5. С. 78-87.; Верт Н. История Советского государства. 1900-1991. Москва. ИНФРА-М: Изд. “Весь мир”, - 2003. Пер. с фр.-2-е изд. - 544 с.

¹¹⁷ Иванченко И.В. Избирательные комиссии в Российской Федерации: История. Теория. Практика. – Москва: Весь мир, - 1996. – 302 с.; Анিকেев А.С., Веденеев Ю.А., Зайцев И.В. Очерки по истории выборов и избирательного права. Под ред. Ю.А.Веденеева, Н.А.Богодаровой. – Калуга: Фонд “Символ”, - 1997. – 388 с.; Янковский И.Р. На пути к реальному народовластью: избирательные технологии в России XX века. – Москва, - 1999. – 174 с.

¹¹⁸ Авакьян С.А. Избирательное право и избирательный процесс в Российской Федерации. Учебник для ВУЗов. Отв. ред. А.В. Иванченко. – Москва: НОРМА, - 1999. – 841 с.; Унинг о‘зи. Конституция России: природа, эволюция, современность. - 2.изд. – Москва: РЮИД, - 2000. – 528 с.; Князев С.Д. Российское избирательное право. Учебник. – Владивосток: Изд. Дальневост. унив-та, - 2001. – 447 с.

¹¹⁹ Саламатова М.С. Лишение избирательных прав как форма социально-политической дискриминации в середине 1920-х - 1936 гг.: На материалах Западной Сибири. Автореф.дис. на соиск. уч. степ. канд.ист.наук. – Новосибирск: Изд. Рос. акад. наук Сибирское отд. инст. ист., - 2002. – 71 с.; Валуев Д.В. Лиценцы в системе социальных отношений (1918-1936 гг.) (на материалах западного региона РСФСР): Автореф.дис. на соиск. уч. степ. канд.ист.наук. – Брянск: Изд. Соленского ГПИ, - 2003. – 55 с.

iqtisodiy va siyosiy rivojlanish dinamikasi bilan bog‘liq holda o‘rganishga harakat qilganlar. Ular tomonidan saylov huquqidan mahrum qilish sohasidagi qonunchilikning shakllanishi va evolyusiyasining asosiy tendensiyalari, uni joylarda amalga oshirish mexanizmlarini tadqiq etilgan bo‘lsa, A.A.Venyaminova tadqiqotida saylovlar mexanizmining huquqiy asoslari va ularning xususiyatlarini saylov jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘lagan holda o‘rganilgan¹²⁰.

S.A.Krasilnikov saylov huquqidan mahrum qilish siyosatini aslida bolsheviklar tomonidan ekspluatatorlar sinfini tugatishga qaratilgan qisqa muddatli bosim harakati emas, balki amalda uning XX asr 50-yillarining o‘rtalariga qadar davom etgan uzoq muddatli ijtimoiy siyosatning muhim qismi sifatida xizmat qilganligini e‘tirof etdi. U insonning qadr-qimmati va mavqeyi ko‘proq uning iqtisodiy holatidan ko‘ra, fuqarolik va siyosiy huquq hamda erkinliklarining mavjudligiga qarab belgilanadigan bu jamiyatda saylov huquqidan mahrum bo‘lish sinfiy tabaqalanishning asosiy ko‘rinishlaridan biri ekanligini ta’kidlab¹²¹, 1917-1930-yillarning oxirlariga qadar bo‘lgan davrda bu kabi alohida toifa sifatida ajralib qolgan – “haqsizlar”, “maxsus ko‘chkindilar”, “mahkumlar” va boshqa shaxslar guruhini “marginallar” deb atadi.

Umuman olganda, XX asr 20-yillarining oxirlariga qadar sovetlarga saylovlar muammosi tarixshunoslikda alohida yoritilmagani, XX asr 30-yillarining ikkinchi yarmidan XX asr 50-yillarining o‘rtalariga qadar bo‘lgan mavzuga aloqador adabiyotlar o‘ta mafkuralashtirilgani, XX asr 50-yillarining o‘rtalariga kelib saylov tizimi tarixini o‘rganishda tub burilish kuzatilgani, XX asr 80-yillaridan boshlab esa sovet tarixshunosligi partiya va hukumatning qattiq nazorati ostida qolib ketganligi sovet saylov tizimi tarixini obyektiv o‘rganishga bo‘lgan intilishni yanada kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, sovet davlatidagi saylovlar tizimi tarixiga oid nashr etilgan ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish ushbu mamlakatda saylov jarayoni tarix va huquq fanlarida ham, boshqa ijtimoiy fanlarda ham yetarlicha o‘rganilmagan, degan fikrga kelish imkonini beradi. Sovet davridagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga saylovlar mexanizmining huquqiy asoslari va saylov jarayonlarini ishlab chiqish qonuniyatlari yuqorida ko‘rib o‘tilgan tadqiqotlarda yetarlicha o‘rganilmagan, deyishga asoslar yetarli.

1918-1937-yillarni o‘z ichiga olgan tadqiqot ishining davriy chegarasi bo‘yicha bugungi kungacha ko‘pgina ilmiy adabiyotlar yaratilgan va ularni davriy xususiyati, ilmiy yondashuvi bo‘yicha bir necha guruhlariga ajratish mumkin. Sovet davri tarixiy adabiyotlarida kommunistik mafkura, markscha-lenincha nazariya keng targ‘ib qilinib, ilm-fan partiya belgilab bergan

¹²⁰ Морозова Н.М. Лишение избирательных прав на территории Мордовии в 1918-1936 гг. Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. канд. ист. наук. – Саранск, - 2005. – С. 50.; Веняминова А.А. Избирательный процесс в Советском государстве (1917 – начало 1990-х гг.). Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. канд. юрид. наук. – Краснодар, - 2008. – 67 с.; Серокурова Л.А. “Лишенцы” Крымской АССР в контексте социально-экономических и политических процессов (1921-1936 гг.). Автореферат дис. на соиск. уч. степ. канд.ист.наук. – Москва: Изд. МГУ, - 2010. – 46 с.;

¹²¹ Красильников С. А. На изломах социальной структуры: маргиналы в послереволюционном российском обществе (1917 - конец 1930-х гг.). [Elektron resurs]. Kirish tartibi: <https://pandia.ru/text/78/118/11742.php>. (murojaat etilgan sana: 27.10.2023 y.).

yo‘ldan borganligi bayon etilgan. Adabiyotlarning salmoqli qismini sovet davri adabiyotlari tashkil etgan, lekin ularda hukmron mafkura ta’siri kuchliligi bois, butun jarayonlar sinfiylik tamoyillari bo‘yicha talqin etilgan, ularda sovet davlatining “adolatli” siyosati faqat ijobiy holat sifatida baho berilgan. Shu sababli ham, sovet davri ilmiy adabiyotlariga tanqidiy nuqtayi nazardan yondashish talab etiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдуллаев М.Ғ. Ўзбекистонда советларнинг “кулоқ” қилиш сиёсати ва унинг фожиаи оқибатлари. Тарих ф.н. диссертацияси. – Тошкент, - 2002.
2. Абдуллаев М.Ғ. Ўрта Осиёдаги махсус посёлкалар тизими ва сургун қилинган кулоқлар тақдири (1920-1954 йиллар). – Тошкент: Akademnashr, - 2018.
3. Авакьян С.А. Избирательное право и избирательный процесс в Российской Федерации. Учебник для ВУЗов. Отв. ред. А.В. Иванченко. – Москва: НОРМА, - 1999.
4. Алещенко Н.М. Московский совет 1917-1941 гг. – Москва: Наука, - 1976.
5. Allen R., Bartlett W., Colegrove K. Democracy and communism: theory and action. Princeton, New Jersey, London, Toronto, - 1967.
6. Аминова Р.Х. Возвращаясь к истории коллективизации в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1995.
7. Аникеев А.С., Веденеев Ю.А., Зайцев И.В. Очерки по истории выборов и избирательного права. Под ред. Ю.А.Веденеева, Н.А.Богодаровой. – Калуга: Фонд “Символ”, - 1997.
8. Аскеров Л.А. Очерки истории советского строительства. – Москва: Изд-во Московского университета, - 1953.
9. Austin M. The Great Experiment. A Study of Soviet Society. – London, English Universities Press, - 1975.
10. Барбашев В.М. КПСС в борьбе за перестройку работы массовых организаций трудящихся в период проведения в жизнь Конституции 1936 г. и выборов в Верховный Совет СССР 1937 г.: Дис. канд. ист. наук. – Москва, - 1955.
11. Бродович С.М. Советское избирательное право. Предисл. проф. Д.А. Магеровского. – Ленинград: Гос. изд-во, 1925.
12. Белогуров М.Г. К вопросу об изучении источников о сельских Советах восстановительного периода (1921-1925 гг.). Советские архивы. – 1978. №3.
13. Валуев Д.В. Лиценцы в системе социальных отношений (1918-1936 гг.) (на материалах западного региона РСФСР): Автореф. дис. на соиск. уч. степ. канд. ист. наук. – Брянск: Изд. Соленского ГПУ, - 2003.
14. Веняминова А.А. Избирательный процесс в Советском государстве (1917 – начало 1990-х гг.). Автореф. дис. на соиск. уч. степ. канд. юрид. наук. – Краснодар, - 2008.

15. Верт Н. История Советского государства. 1900-1991. Москва. ИНФРА-М: Изд. “Весь мир”, - 2003. Пер. с фр.-2-е изд.
16. Гимпельсон Е.Г. Литература о Советах первых лет диктатуры пролетариата (1917-1920 гг.) и история СССР. - 1963. №5.
17. Голованов А.А. Крестьянство Узбекистана: эволюция социального положения. 1917-1937 гг. – Ташкент: Фан, - 1992.
18. Демочкин Н.Н. Власть народа. Формирование, состав и деятельность Советов в установлении развитого социализма. – Москва: Мысль, - 1978.
19. Еськов Г.С. Укрепление политической основы Советского государства. Период построения социализма. – Москва: Мысль, - 1983.
20. Ибрагимова А.Ю. Победа ленинского кооперативного плана в Узбекистане (1929-1933 гг.). – Ташкент: Фан, УзССР, - 1969
21. Иванченко А.В. Великий Октябрь и революционное утверждение политических прав и свобод граждан и Советское государство и право. 1987. №11.
22. Иванченко И.В. Избирательные комиссии в Российской Федерации: История. Теория. Практика. – Москва: Весь мир, - 1996.
23. Икрамов А. Итоги земельной реформы и перспективы её закрепления. – Самарканд-Ташкент, 1925.
24. Каганович Л.М. Партия и Советы. – Москва: Гос. изд., 1928.
25. Калинин М.И. Статьи и речи 1919-1935 гг. – Москва: Партиздат ЦК ВКП(б), - 1936.
26. Калинин А.Ф. Повышение роли Советов в период завершения социалистической реконструкции народного хозяйства. – Ленинград: Изд-во Ленингр. унив-та, - 1976.
27. Карр Э. История Советской России: большевистская революция. 1917-1923. Кн. 1. Том 1-2. – Москва: Прогресс, - 1990.
28. Казачковский В.А. Укрепление советской государственности в 1926-1929 гг. Автореф. канд. ист. наук. – Киев, - 1951.
29. Князев С.Д. Российское избирательное право. Учебник. – Владивосток: Изд. Дальневост. унив-та, - 2001.
30. Красильников С. А. На изломах социальной структуры: маргиналы в послереволюционном российском обществе (1917 - конец 1930-х гг.). [Elektron resurs]. Kirish tartibi: <https://pandia.ru/text/78/118/11742.php>.